

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

1-maxsus
son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ S/1 (6) – 2026

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Алимджанов Бахтиёр Абдихакимович</i> «НА ЭТОМ СЪЕЗДЕ ИДЕЙНОМУ РАЗБРОДУ НУЖНО ПОЛОЖИТЬ КОНЕЦ», ИЛИ КАК СОЮЗ АРХИТЕКТОРОВ УЗБЕКИСТАНА НАЧАЛ МЫСЛИТЬ	11-17
<i>Esanova Nilufar</i> O'ZBEKISTON VA JANUBIY KOREYA O'RTASIDA OG'IR SANOAT TARMOQLARINING RIVOJLANISHIDAGI O'RNI	18-21
<i>Muminov Azizbek Ziyoviddinovich</i> JIZZAX VILOYATI JOYLASHGAN TABIIY OBYEKT LARNING TARIXIY-GEOGRAFIK TASNIFI VA TURISTIK SALOHİYATI	22-27
<i>Ne'matov Xumoyun To'liqin o'g'li</i> SHOHRUX MIRZO VA USMONIYLAR O'RTASIDAGI DIPLOMATIK ALOQALAR TARIXI	28-33
<i>Khudoyorov Noyibjon Maripjonovich, Ruziboev Samandarbek Sobirjon o'g'li</i> THE POLICY OF DEKULAKIZATION AND CONFISCATION OF PEASANT HOUSEHOLDS IN KAZAKHSTAN, 1929–1933.....	34-43
<i>Шамшетдинова Дилафруза Исмайыловна</i> ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ ПРОГРЕСС И ТРАНСФОРМАЦИЯ КУЛИНАРНЫХ ТРАДИЦИЙ В СЕЛЬСКОЙ МЕСТНОСТИ КАРАКАЛПАКСТАНА (1960-1980 ГГ.).....	44-48

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Kasimova Gulyar Axmatovna, Xaydarova Durdona Shuxratjon qizi</i> DAVLAT TIBBIY SUG'URTASI MEXANIZMIDA DORI-DARMON XARIDLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH	49-56
<i>Abdullayev Abdulla Fayzulla o'g'li</i> AXBOROT MAHSULOTLARI BIZNESINI RIVOJLANTIRISHNING KO'P OMILLI EKONOMETRIK MODELI: OLS VA ARDL TAQQOSLASH	57-64

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Tashanov Abduxoliq</i> BUZG'UNCHI G'OYALARNING IJTIMOIIY-SIYOSIY VA AXLOQIY MUAMMOLARI	65-71
<i>Jo'rayev Ahmad Muhammadiyevich</i> TASAVVUF TA'LIMOTIDA DINIY BAG'RIKENGLIK VA MILLATLARARO TOTUVLIK MASALALARI	72-78
<i>Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna</i> TASAVVUFNING FALSAFIY JIHATLARI XUSUSIDA.....	79-84
<i>Ibraximova Dilorom Saloydinovna</i> RAQAMLI MUHITDA ESTETIK IDROKNING XUSUSIYATLARI.....	85-88
<i>Muxammadiyeva Oliy Narzullayevna</i> OILA INSTITUTINI MUSTAHKAMLASH KONSEPSIYASI - OILA VA JAMIYAT IJTIMOIY BARQARORLIGINING MEZONI.....	89-92

<i>Matchanova Barno</i> MAFKURA VA MILLIY MAFKURA TUSHUNCHALARI: MAZMUN-MOHİYATI VA IJTIMOİY FUNKSIYALARI.....	93-98
<i>Uraqov Nodirbek Boboqulovich</i> BAG'RIKENGLIK G'OYASINING TASAVVUFİY-FALSAFIY TAHLILI (Maxdumi A'zamning "Risolai tanbeh ul-ulamo" asari asosida).....	99-104
<i>Raxmatov Alisher Obidovich</i> IJTIMOIY FALSAFADA INTEGRATSIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	105-108
<i>O'sarkulov Oybek Murodilovich</i> MILLIY IDENTIKLIKNING TRANSFORMATSIYASI VA IJTIMOİY INTEGRATSIYA: O'ZBEKISTONDAGI KOREYS DIASPORASI TAJRIBASI.....	109-115
<i>Fayziyev Xurshid Jumayevich</i> VOLTERNING "BAG'RIKENGLIK HAQIDA" ASARIDA JAN KALASNING QATL ETILISHI VA UNING OQIBATLARINI AKS ETTIRILISHI	116-121
<i>Shadmonova Zebiniso Amrulloevna</i> OILA SHAXS KAMOLOTINING ASOSIY IJTIMOİY MUHITI VA JAMIYAT BARQARORLIGINING OMILI SIFATIDA.....	122-126
<i>Idiboyev Abror Jamolovich</i> JAMIYAT IJTIMOİY-MA'NAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA - YOSHLAR HUQUQIY TARBIYASINING O'RNI	127-130
<i>Ahmadjonov To'liqinbek Akramjon o'g'li</i> RAQAMLI OLAMNING YOSHLAR ONGIGA TA'SIRI.....	131-136
<i>Sodiqov Islombek Otabek o'g'li</i> RAQAMLI MADANIYAT TUSHUNCHASI VA UNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI	137-141
<i>Abdurahimov Ravshanbek O'ktam o'g'li</i> HUQUQIY DEMOKRATIK JAMIYAT QURISH SHAROITIDA YOSHLAR HUQUQIY ONGINING SHAKLLANISH OMILLARI	142-146
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Duvlaeva Nozigul Xolmuxammat qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK MATNLARIDA STILISTIK TASVIR VOSITALARI	147-151
<i>Зикруллаева Хусния Бахтияровна</i> СТРУКТУРА, ПРОИСХОЖДЕНИЕ И НОРМАТИВНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ЗАИМСТВОВАННЫХ ТЕРМИНОВ В УЗБЕКСКОМ НАУЧНО-ТЕХНИЧЕСКОМ ТЕКСТЕ.....	152-156
<i>Turdiyeva Dilorom Soliyevna</i> PEDAGOGICAL STRATEGIES FOR INCLUSIVE LEARNING	157-162
<i>Eshmuratov Umidjon Temurovich</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI AFORIZMLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI	163-167
<i>Avlayeva Saida Bozorovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA COVID-19 PANDEMIYASI SHAROITIDA SHAKLLANGAN KISHILAR JAMOALARINI IFODALOVCHI NEOLOGIZMLAR.....	168-172
<i>Ubaydullaeva Dilfuza Akmal qizi</i> JURNALISTLARNI TAYYORLASHDA NUTQ MADANIYATI KOMPETENSIYALARINING STRUKTURASI	173-181

<i>Alimova Shaxnoza Yaxshiboyevna</i> ASSOTSIIATIV TAJRIBA PSIXOLINGVISTIKA USULI SIFATIDA	182-187
<i>Xudayberganov Nizomaddin Uktambay o'g'li, Mansurova Shaxinabonu Najmiddin qizi</i> O'ZBEK TILIDA SON VA SIFAT SO'Z TURKUMLARINI POS TEGGLASH ASOSIDA O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH TAMOIYILLARI	188-193
12.00.00 – YURIDIK FANLAR	
<i>Абдуллаева Дильдора Эльмуродовна</i> ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В СТАРТАП ПРОЕКТЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН НА ПРИМЕРЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АКСЕЛЕРАТОРОВ И ИНКУБАТОРОВ.....	194-198
<i>Fayzullayeva Shaxlo Jumanioz qizi</i> THEORETICAL AND LEGAL ASPECTS OF INCLUSION OF COPYRIGHT OBJECTS IN INTERNATIONAL TRADE.....	199-204
<i>Qalandarov Aminjon Amondullayevich</i> KORPORATSIYALARDA AFFILLANGAN SHAXSLAR INSTITUTINING HUQUQIY TABIATI VA TARTIBGA SOLINISHI	205-212
<i>Uralov Sarbon Sardorovich</i> JINOYAT-PROTSESSUAL QONUNCHILIKDA VIDEOKONFERENSALOQA ORQALI TERGOV HARAKATLARINI TARTIBGA SOLISHNING UMUMIY SHARTLARI	213-218
<i>Xolmirzayev Muhsin Shavqiddin o'g'li</i> KRIMINOLOGIK PROGNOZLASHDA ANIQ FANLAR VA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEKNOLOGIYALARI YUTUQLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	219-225
<i>Dilboboyev Nozimbek</i> XORIJIY (CHET EL) VA MAHALLIY (MILLIY) INVESTITSIYA TUSHUNCHALARINING ILMIY-NAZARIY TAVSIFI, ULARNING BOZOR IQTISODIYOTIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI.....	226-232
<i>Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li</i> ATOM ENERGIYASINING XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI	233-240
<i>Asadov Shahridin Faxriddin o'g'li</i> FUQAROLIK HUQUQIDA XIZMATLARNING HUQUQIY TABIATI: KONSALTING XIZMATLARI MISOLIDA.....	241-243
<i>Абдужампоров Шахбоз Музаффар ўғли</i> НЕСАНКЦИОНИРОВАННЫЙ ДОСТУП И ХИЩЕНИЕ ДЕНЕЖНЫХ СРЕДСТВ С ПЛАСТИКОВЫХ КАРТ: УГРОЗЫ, МОДЕЛИ ПРЕСТУПЛЕНИЙ И КОМПЛЕКСНЫЕ МЕРЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ.....	244-253
<i>Хасанов Турсунпулат Шавкатжон ўғли</i> МЕЖДУ АЛГОРИТМОМ И ЗАКОНОМ: ПРОБЛЕМА ПРАВОВОЙ ИДЕНТИФИКАЦИИ СМАРТ-КОНТРАКТОВ В ЦИФРОВУЮ ЭПОХУ	254-259
<i>Kadirova Moxigul Xamitovna</i> ZAMONAVIY DAVLAT BOSHQARUVI VA ADOLATLI SUD-HUQUQ TIZIMI	260-262
<i>Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna</i> UCHINCHI RENESSANS SHAROITIDA VATANPARVARLIK G'OYASINING MA'NAVIY-HUQUQIY MOHIYATI (O'zbekiston tajribasi va xorijiy yondashuvlar qiyosida).....	263-269

<i>Shagilov Pulatbek Koptleuovich</i> JAMOAT XAVFSIZLIGIGA TAJOVUZ QILUVCHI HUQUQBUZARLIKLARGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA ILG'OR XORIJIY MAMLAKATLARINING TAJRIBASI TAXLILI	270-276
<i>Kubaeva Ismigul Farkhod qizi</i> PARTY AUTONOMY VS CONSUMER PROTECTION IN INTERNATIONAL E-COMMERCE: THE CASE OF UZBEKISTAN IN COMPARATIVE PERSPECTIVE	277-283
<i>Нормуродова Азиза Азимжон кизи</i> ПОНУЖДЕНИЕ ЛИЦА К ВСТУПЛЕНИЮ В ПОЛОВУЮ СВЯЗЬ: ПРАВОВАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ОБЪЕКТИВНОЙ СТОРОНЫ ПРЕСТУПЛЕНИЯ.....	284-295
<i>Toshpo'latov Islom Otavulla o'g'li</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KADRLAR BILAN ISHLASH SIYOSATIDA MA'NAVIY- MA'RIFIY ISHLAR VA UNI ICHKI ISHLAR ORGANLARI TIZIMIGA TA'SIRI	296-301
<i>Аллашова Шийринай Турсынбаевна, Каримова Мадина Мирзаджоновна</i> ВИКТИМНОЕ ПОВЕДЕНИЕ ЖЕРТВ БЫТОВОЙ ПРЕСТУПНОСТИ И ЕГО ПРОФИЛАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ	302-307
<i>Lutfullayeva Feruza Boboqulovna</i> HUQUQIY DAVLAT KONSEPSIYASINING ZAMONAVIY NAZARIY YONDASHUVLARI	308-312
<i>Abdugaffarov Davronbek Dilshod o'g'li</i> SHARTNOMALARNI AMALGA OSHIRISH USTIDAN SAMARALI PARLAMENT NAZORATI: O'ZBEKISTONDA XALQARO TIJORAT SHARTNOMALARIDA TARAFLARNING ERK MUXTORIYATINI KUCHAYTIRISH.....	313-317
<i>Jalilov Ravshanjon Abdukayumovich</i> INSON A'ZOLARI VA TO'QIMALARINING NOQONUNIY AYLANMASI: JINOIY-HUQUQIY VA QIYOSIY TAHLIL	318-329
<i>Muxtorov Muhammad Amin Mirkomil o'g'li</i> MULK HUQUQINI MUHOFAZA QILISH ICHKI ISHLAR ORGANLARINING FAOLIYATI.....	330-337
<i>Karimov Ulugbek Hakimjonovich</i> LEGAL FOUNDATIONS OF PROSECUTORIAL SUPERVISION IN ENSURING THE ALLOCATION, USE, AND PROTECTION OF LAND PLOTS IN THE AGRARIAN SECTOR OF UZBEKISTAN	338-343
<i>Mirabdullayev Maqsudjon Mahmudjon o'g'li</i> MASHINALI O'QITISH USULLARI ASOSIDA XOSTNING XAVFSIZLIGINI BAHOLASH, MODEL VA ALGORITMLARINI ISHLAB CHIQISH.....	344-349
<i>Utebaev Salamat Maqsetbay o'g'li, Dauletbaeva Aynur Baxramovna</i> OILAGA QARSHI JINOYATLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ULARNING OLDINI OLISH.....	350-354
<i>Tillayev Ikrom Rustamjonovich</i> HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASINI BELGILAB BERUVCHI UMUMIY VA SOHAVIY-HUQUQIY HUJJATLAR TAHLILI	355-362
<i>Xoshimova Nilufar Zafarjon qizi</i> O'ZBEKISTONDA MEHNAT MUNOSABATLARIDA MIGRATSIYA MUNOSABATLARI.....	363-366

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Rahmonova Nilufar Najmiddin qizi BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI FORSAYT TADQIQOT METODLARI ASOSIDA KREATIV KOMPETENSIYALARI TA'LIM TRAYEKTORIYASINI TASHKIL ETISH	367-371
<i>Abdurasulova Dilrabo Tolkunjon qizi</i> KOMPARATIVISTIKISTIK YONDASHUV TALABALARNING MADANIYATLARARO KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSI SIFATIDA.....	372-380
<i>Таджиходжаева Эльвира Рашидовна</i> ЦИФРОВАЯ ГРАМОТНОСТЬ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ КАТЕГОРИЯ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ НЕПРОФИЛЬНЫХ СПЕЦИАЛЬНОСТЕЙ.....	381-387
<i>Ravshanova Gulnoza Burxonovna</i> 5-SINF O'QUVCHILARINING ANTROPOMETRIK TOTAL KO'RSATKICHLARINI O'RGANISH BO'YICHA TADQIQOT BOSHIDA OLINGAN NATIJALAR TAHLILI.....	388-393
<i>Mirzaakhmedova Makhliyo Yuldashevna</i> THE IMPACT OF AUTHENTIC MATERIALS ON TEACHING BUSINESS WRITING SKILLS TO ESP STUDENTS	394-400

Received: 03 January 2026

Accepted: 17 January 2026

Published: 30 January 2026

Article / Original Paper

THE STRUCTURE OF SPEECH CULTURE COMPETENCIES IN JOURNALISM EDUCATION

Ubaydullaeva Dilfuza Akmal qizi

“Ayol” by CAU Microfinance Organization

Business Consultant (Expert)

E-mail: dilfuza.15051991@mail.ru

Abstract. The article examines the structure of speech culture competencies in the process of journalism education. Speech culture is considered as a core professional competence of a journalist, encompassing linguistic, stylistic, rhetorical, communicative-pragmatic, and psychological components. Special attention is paid to the role of journalistic speech in shaping public consciousness and ensuring professional responsibility. The study interprets speech culture not only as adherence to language norms but also as a complex competence related to social influence and ethical awareness. The findings substantiate the necessity of an integrative and interdisciplinary approach to the development of speech culture in journalism education.

Keywords: speech culture, journalism education, professional competence, mass communication, rhetoric.

JURNALISTLARNI TAYYORLASHDA NUTQ MADANIYATI KOMPETENSIYALARINING STRUKTURASI

Ubaydullaeva Dilfuza Akmal qizi

“Ayol” by CAU Mikromoliya tashkiloti

Biznes konsultant (Ekspert)

Annotatsiya. Ushbu maqolada jurnalistlarni tayyorlash jarayonida nutq madaniyati kompetensiyalarining nazariy asoslari va strukturaviy tuzilishi tahlil qilinadi. Nutq madaniyati jurnalist kasbiy tayyorgarligining markaziy komponenti sifatida ko'rib chiqilib, uning lingvistik, stilistik, ritorik, kommunikativ-pragmatik va psixologik jihatlari ochib beriladi. Tadqiqotda nutq madaniyati faqat til me'yorlariga rioya qilish emas, balki auditoriyaga ta'sir ko'rsatish, ijtimoiy mas'uliyat va axloqiy ong bilan bog'liq kompleks kompetensiya sifatida talqin qilinadi. Olingan natijalar jurnalistik ta'lim tizimida nutq madaniyatini shakllantirishda integrativ va fanlararo yondashuv zarurligini asoslaydi.

Kalit so'zlar: nutq madaniyati, jurnalist tayyorlash, kasbiy kompetensiya, ommaviy kommunikatsiya, ritorika.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI1Y2026N29>

Kirish. Zamonaviy jamiyatda ommaviy axborot vositalari ijtimoiy hayotning barcha sohalariga chuqur kirib borgan axborot instituti sifatida faoliyat yuritmoqda. Axborot oqimlarining jadallashuvi, raqamli medianing kengayishi va jamoatchilik fikri uchun kurash kuchayishi jurnalist shaxsiga, uning kasbiy mahorati va nutqiy madaniyatiga bo'lgan talabni sezilarli darajada oshirmoqda. Jurnalist faqat voqealarni yorituvchi shaxs emas, balki voqelikni til vositasida qayta qurish, uni muayyan nuqtai nazardan talqin qilish orqali auditoriya ongiga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy subyekt sifatida namoyon bo'ladi. Shu ma'noda jurnalist nutqi jamiyat ongini shakllantiruvchi kuchli vositaga aylanadi [1].

Jurnalistik ta'lim tizimida nutq madaniyati masalasi an'anaviy ravishda til me'yorlarini bilish, adabiy tilda so'zlay olish va yozma nutqda xatolarga yo'l qo'ymaslik bilan cheklab kelingan. Ammo zamonaviy ommaviy kommunikatsiya sharoitida bunday yondashuv yetarli emas. Nutq madaniyati jurnalist kasbiy kompetensiyalarining markaziy bo'g'ini sifatida, uning kommunikativ strategiyasi, auditoriya bilan muloqot etikasi, ta'sirchanlik va ishon tirish mexanizmlari bilan uzviy bog'liq holda qaralishi lozim [4].

Ayniqsa, ommaviy axborot vositalari tilining manipulyativ salohiyati jurnalist nutq madaniyatining mas'uliyatli jihatlarini yanada dolzarb qiladi. Baranov va Parshin ta'kidlaganidek, til voqelikni faqat aks ettirmaydi, balki uni qayta interpretatsiya qiladi, ayrim jihatlarini kuchaytiradi yoki zaiflashtiradi, shu orqali auditoriya ongida muayyan tasavvurlarni shakllantiradi [1]. Demak, jurnalist nutq madaniyati faqat texnik ko'nikmalar majmuasi emas, balki ijtimoiy ta'sirni anglash va uni boshqarish qobiliyatidir.

Ushbu maqolada jurnalistlarni tayyorlash jarayonida nutq madaniyati kompetensiyalarining strukturasi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor nutq madaniyatining tarkibiy komponentlarini aniqlash, ularning o'zaro bog'liqligini ochib berish hamda jurnalistik ta'lim tizimida mazkur kompetensiyalarni shakllantirishning metodologik asoslarini asoslashga qaratilgan.

Muammoning dolzarbligi. Jurnalistika sohasida kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirish masalasi global axborot makonida raqobat kuchaygan sharoitda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Axborot tezligi, auditoriya e'tibori uchun kurash va ijtimoiy tarmoqlar ta'sirining ortishi jurnalist nutqini ta'sirchan, aniq va ishonchli bo'lishini taqozo etadi. Shu bilan birga, noto'g'ri, bee'tibor yoki manipulyativ nutq jamoatchilik fikrini chalg'itish, ijtimoiy ishonchga putur yetkazish xavfini ham keltirib chiqaradi [7].

Jurnalist nutq madaniyatining yetarli darajada shakllanmagani ommaviy axborot vositalari tilida uslubiy noaniqlik, me'yoriy xatolar, etik me'yorlarning buzilishi va manipulyativ ta'sirning kuchayishiga olib kelishi mumkin. Dotsenko ta'kidlaganidek, manipulyatsiya psixologik ta'sirning yashirin shakli bo'lib, u nutq orqali amalga oshiriladi va auditoriya tomonidan ko'pincha anglanmaydi [7]. Shu sababli jurnalist nutq madaniyati nafaqat professional mahorat, balki ijtimoiy mas'uliyat masalasi hamdir.

O'zbek va rus tilshunosligida nutq madaniyati masalalari keng o'rganilgan bo'lsa-da, jurnalistlarni tayyorlash kontekstida nutq madaniyati kompetensiyalarining strukturasi maxsus, tizimli tahlil obyekti sifatida yetarlicha yoritilmagan. Boqieva va Teshaboeva jurnalist nutq madaniyati va notiqlik san'atini o'qitish zarurligini ta'kidlasalar-da, mazkur kompetensiyalarning ichki tuzilishi masalasi yanada chuqur tahlilni talab qiladi [2].

Shu ma'noda, nutq madaniyatini jurnalistik ta'limda alohida fan yoki yordamchi ko'nikma sifatida emas, balki kompleks kompetensiyalar tizimi sifatida ko'rib chiqish dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi va ilmiy yondashuv. Tadqiqotning asosiy maqsadi jurnalistlarni tayyorlash jarayonida nutq madaniyati kompetensiyalarining nazariy modelini ishlab chiqish va uning strukturasi ilmiy jihatdan asoslashdan iborat. Bu maqsadga erishish uchun nutq madaniyati tushunchasi lingvistik, stilistik, ritorik, kommunikativ-pragmatik va psixologik yondashuvlar uyg'unligida tahlil qilindi.

Nutq madaniyati tushunchasiga bunday kompleks yondashuv Vinogradov tomonidan ilgari surilgan normativ va kommunikativ-pragmatik konsepsiyaga tayanadi. Unga ko'ra, nutq

madaniyati faqat til me'yorlariga rioya qilish bilan cheklanmaydi, balki muloqot maqsadi, sharoiti va natijasi bilan belgilanadi [4]. Jurnalist nutqi esa aynan pragmatik jihatdan eng yuqori yuklamaga ega bo'lgan nutq turlaridan biri hisoblanadi.

Shu bilan birga, jurnalistik nutqning ritorik tabiati Rojdestvenskiyning ritorika nazariyasi asosida tahlil qilindi. Uning fikricha, ommaviy nutq har doim ishontirish, ta'sir ko'rsatish va auditoriya munosabatini shakllantirishga qaratilgan bo'ladi [10]. Bu holat jurnalist nutq madaniyatida ritorik kompetensiyaning alohida o'rni borligini ko'rsatadi.

Nutq madaniyati tushunchasining nazariy talqini. Nutq madaniyati tushunchasi tilshunoslikda ko'p qirrali kategoriya sifatida qaraladi. U til me'yorlariga rioya qilish, nutqning aniqligi, mantiqiyliqi, ta'sirchanligi va estetik qiymatini qamrab oladi. Belchikov nutq madaniyatini shaxsning tilga bo'lgan umumiy munosabati va kommunikativ ongining ifodasi sifatida ta'riflaydi [3].

Jurnalistika kontekstida nutq madaniyati alohida kasbiy mazmun kasb etadi. Kolesnikov ta'kidlaganidek, jurnalistik matn nafaqat axborot yetkazadi, balki uni qanday shaklda yetkazishi bilan ham ahamiyatlidir. Shu sababli nutq madaniyati jurnalistik tahrir, janr xususiyatlari va auditoriya ehtiyojlari bilan uzviy bog'liq [8].

O'zbek ilmiy an'anasida nutq madaniyati notiqlik mahorati bilan chambarchas bog'liq holda qaraladi. O'rinboev va Soliev asarlarida nutq madaniyati ijtimoiy ta'sir ko'rsatish vositasi sifatida talqin qilinib, notiq shaxsning ma'naviy va axloqiy mas'uliyatiga alohida e'tibor qaratilgan [5]. Qung'urov, Begmatov va Tojiev esa nutq madaniyatini uslubiyat asoslari bilan bog'lab, til vositalarini maqsadga muvofiq qo'llashni asosiy mezon sifatida ko'rsatadilar [6].

Metodologiya. Jurnalistlarni tayyorlashda nutq madaniyati kompetensiyalarining strukturasini o'rganish kompleks metodologik yondashuvni talab qiladi. Bu masala faqat til me'yorlarini tahlil qilish bilan cheklanib qolmay, ommaviy kommunikatsiya, psixologiya, ritorika va pragmatika sohalarini bilan chambarchas bog'liqdir. Shu sababli tadqiqot metodologiyasi fanlararo xarakterga ega bo'lib, bir nechta nazariy va amaliy yondashuvlarning uyg'unligiga tayanadi.

Tadqiqotning metodologik asosini nutq madaniyatini normativ va kommunikativ-pragmatik birlikda talqin qiluvchi konsepsiyalar tashkil etadi. Vinogradov tomonidan ishlab chiqilgan yondashuvga ko'ra, nutq madaniyati til me'yorlariga qat'iy rioya qilish bilan birga, nutqning kommunikativ samaradorligi, maqsadga muvofiqligi va ijtimoiy ta'siri bilan belgilanadi [4]. Jurnalistik nutq esa aynan shu jihatlar bilan xarakterlanadi, chunki u ommaviy auditoriyaga qaratilgan va har doim muayyan pragmatik vazifani bajaradi.

Metodologik tahlil jarayonida lingvistik yondashuv asosiy o'rin tutadi. U jurnalist nutqida adabiy til me'yorlarining saqlanishi, leksik tanlov, sintaktik tuzilish va uslubiy moslik masalalarini qamrab oladi. Belchikov ta'kidlaganidek, nutq madaniyatining lingvistik asosi til tizimini chuqur anglash va undan ongli ravishda foydalanish qobiliyati bilan belgilanadi [3]. Shu sababli jurnalistik ta'limda tilshunoslik bilimlari nutq madaniyati kompetensiyalarining poydevori sifatida qaraladi.

Stilistik yondashuv tadqiqot metodologiyasining muhim qismi hisoblanadi. Jurnalistik nutq turli janrlar, formatlar va auditoriyalar uchun moslashuvchan bo'lishi lozim. Kolesnikov ta'kidlaganidek, stilistik tahlil jurnalistik matnning ifodalilik darajasini, janr talablariga mosligini va tahrir madaniyatini aniqlash imkonini beradi [8]. Shu nuqtai nazardan, nutq

madaniyati kompetensiyalari strukturasida stilistik ong alohida metodologik ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotda kommunikativ-pragmatik yondashuv ham qo'llanildi. Bu yondashuv nutqni faqat til birliklari majmuasi sifatida emas, balki muayyan ijtimoiy vaziyatda amalga oshiriladigan maqsadli faoliyat sifatida ko'rib chiqadi. Baranov va Parshin ta'kidlaganidek, ommaviy kommunikatsiyada til voqelikni interpretatsiya qilish vositasi bo'lib, jurnalist nutqi orqali auditoriya ongida muayyan ma'no va baholar shakllanadi [1]. Shu sababli tadqiqotda jurnalist nutq madaniyatining pragmatik yuklamasi alohida tahlil qilindi.

Psixologik yondashuv metodologiyaning yana bir muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Jurnalist nutqi har doim inson ongiga qaratilgan bo'lib, u ishontirish, ta'sir ko'rsatish va ba'zan manipulyatsiya mexanizmlarini o'z ichiga oladi. Dotsenkoning manipulyatsiya psixologiyasiga oid tadqiqotlari jurnalist nutq madaniyatini tahlil qilishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi [7]. Bu yondashuv jurnalistning psixologik madaniyati, etik mas'uliyati va auditoriyaga nisbatan ongli munosabatini o'rganish imkonini beradi.

Shu bilan birga, ritorik yondashuv tadqiqot metodologiyasida markaziy o'rin egallaydi. Rojdestvenskiy ta'kidlaganidek, ommaviy nutq har doim ishontirishga qaratilgan bo'lib, unda argumentatsiya, obrazlilik va ta'sirchanlik muhim ahamiyat kasb etadi [10]. O'rinboev va Soliev hamda Qung'urov, Begmatov va Tojiev asarlarida notiqlik mahorati va nutq madaniyatining o'zaro bog'liqligi keng yoritilgan [5], [6]. Shu asosda jurnalist nutq madaniyati kompetensiyalarining ritorik komponenti alohida tahlil qilindi.

Tadqiqotda qiyosiy-taqqoslama usul ham qo'llanildi. U orqali rus va o'zbek ilmiy an'anasida nutq madaniyati tushunchasining talqinlari solishtirildi va jurnalistik ta'lim uchun umumiy nazariy xulosalar ishlab chiqildi. Bu usul nutq madaniyati kompetensiyalarining universal va milliy xususiyatlarini aniqlash imkonini berdi.

Umuman olganda, mazkur metodologiya jurnalistlarni tayyorlashda nutq madaniyati kompetensiyalarining strukturasini tizimli ravishda ochib berish, uning tarkibiy qismlari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash va keyingi tahlil bosqichlari uchun ilmiy asos yaratishga qaratilgan.

Natijalar. Olib borilgan nazariy va metodologik tahlillar jurnalistlarni tayyorlash jarayonida nutq madaniyati kompetensiyalarini yaxlit va iyerarxik tizim sifatida ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatdi. Nutq madaniyati jurnalist kasbiy tayyorgarligining alohida elementi emas, balki uning professional identifikatsiyasini belgilaydigan markaziy kompetensiya sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, nutq madaniyati kompetensiyalari bir nechta o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi tarkibiy qismlardan iborat bo'lib, ularning har biri jurnalist faoliyatida muayyan funksional yuklamaga ega.

Jurnalist nutq madaniyatining asosiy poydevorini lingvistik kompetensiya tashkil etadi. Bu kompetensiya adabiy til normalariga rioya qilish, grammatik to'g'rilik, leksik aniqlik va nutqning mantiqiy izchilligi bilan xarakterlanadi. Belchikov ta'kidlaganidek, til me'yorlarini bilish va ularni ongli ravishda qo'llay olish nutq madaniyatining eng asosiy belgisidir [3]. Jurnalistik nutqda bu talab yanada kuchliroq namoyon bo'ladi, chunki ommaviy axborot vositalari tili ko'p millionli auditoriya uchun namunaviy til sifatida qabul qilinadi. Shu sababli jurnalist nutqidagi har qanday me'yoriy og'ish jamiyatda til madaniyatining umumiy darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, lingvistik kompetensiya jurnalist uchun faqat texnik bilimlar majmuasi emas, balki kasbiy mas'uliyat shaklidir. Jurnalist nutqi orqali til me'yorlari ommalashadi, mustahkamlanadi yoki aksincha, zaiflashadi. Shu nuqtai nazardan, jurnalistik ta'limda lingvistik tayyorgarlik nutq madaniyati kompetensiyalarining boshlang'ich bosqichi sifatida qaralishi lozim.

Nutq madaniyati kompetensiyalarining keyingi muhim tarkibiy qismi stilistik kompetensiya hisoblanadi. Bu kompetensiya jurnalistning turli janrlarda, turli axborot formatlarida va turli auditoriyalar uchun nutqni moslashtirish qobiliyatini ifoda etadi. Kolesnikov ta'kidlaganidek, stilistik madaniyat jurnalistik matnning sifatini belgilaydigan asosiy omillardan biri bo'lib, u janr talablari, ifodalilik va tahrir madaniyati bilan uzviy bog'liq [8]. Tadqiqot natijalariga ko'ra, stilistik kompetensiya jurnalist nutq madaniyatida dinamik xarakterga ega bo'lib, u vaziyatga qarab doimiy ravishda qayta konfiguratsiyalanib turadi.

Jurnalist nutqida stilistik kompetensiyaning yetarli darajada rivojlanmagani axborotning noaniqligi, janrlar o'rtasidagi chegaralarning buzilishi va auditoriya bilan kommunikativ uzilishlarga olib kelishi mumkin. Shu sababli stilistik kompetensiya jurnalist nutq madaniyati strukturasi mustaqil, biroq lingvistik asosga tayangan holda shakllanadigan tarkibiy qism sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalari ritorik kompetensiya jurnalist nutq madaniyatining eng ta'sirchan va ijtimoiy ahamiyatga ega qismi ekanini ko'rsatdi. Ritorik kompetensiya jurnalistning ishonitirish, dalillash, auditoriya diqqatini jalb qilish va muayyan nuqtai nazarni shakllantirish qobiliyati bilan bog'liq. Rojdestvenskiy ta'kidlaganidek, ommaviy nutq doimo ritorik xarakterga ega bo'lib, u auditoriya ongiga ta'sir ko'rsatishga qaratilgan [10]. Jurnalist faoliyatida esa bu xususiyat markaziy o'rinni egallaydi.

O'rinboev va Soliev asarlarida notiqlik mahorati nutq madaniyatining amaliy ifodasi sifatida qaralib, notiq shaxsning ijtimoiy mas'uliyatiga alohida e'tibor qaratilgan [5]. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ritorik kompetensiya jurnalist nutq madaniyatida faqat texnik usullar bilan cheklanmaydi, balki axloqiy va ma'naviy omillar bilan ham chambarchas bog'liqdir. Ishonitirish va ta'sir ko'rsatish imkoniyati jurnalistdan yuqori darajadagi mas'uliyatni talab qiladi.

Kommunikativ-pragmatik kompetensiya nutq madaniyati strukturasi integrativ xarakterga ega bo'lgan tarkibiy qism sifatida namoyon bo'ladi. Bu kompetensiya nutq maqsadi, auditoriya xususiyatlari, ijtimoiy kontekst va kommunikatsiya sharoitlarini hisobga olgan holda nutqni tashkil etish qobiliyatini qamrab oladi. Vinogradov ta'kidlaganidek, nutq madaniyatining kommunikativ samaradorligi uning pragmatik mosligi bilan belgilanadi [4]. Jurnalist nutqi esa aynan pragmatik jihatdan eng yuqori yuklamaga ega bo'lgan nutq turidir.

Baranov va Parshin tomonidan ilgari surilgan konsepsiyaga ko'ra, ommaviy kommunikatsiyada til voqelikni turlicha interpretatsiya qilish imkonini beradi va bu jarayon jurnalist nutqi orqali amalga oshadi [1]. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, kommunikativ-pragmatik kompetensiya jurnalist nutq madaniyatida markaziy bog'lovchi bo'g'in vazifasini bajaradi, chunki u lingvistik, stilistik va ritorik komponentlarni amaliy kommunikatsiyada birlashtiradi.

Nutq madaniyati kompetensiyalarining yana bir muhim tarkibiy qismi psixologik madaniyat bilan bog'liq. Jurnalist nutqi inson ongiga qaratilgan bo'lib, u har doim psixologik ta'sir elementlarini o'z ichiga oladi. Dotsenko ta'kidlaganidek, manipulyatsiya inson ongiga

yashirin ta'sir ko'rsatish shakli bo'lib, u asosan til vositasida amalga oshiriladi [7]. Tadqiqot natijalari jurnalist nutq madaniyatida psixologik kompetensiyaning ahamiyati juda yuqori ekanini ko'rsatdi.

Kuzin asarlarida jurnalist shaxsining psixologik madaniyati, uning kasbiy barqarorligi va auditoriya bilan munosabati alohida ta'kidlanadi [9]. Olingan natijalarga ko'ra, psixologik kompetensiya jurnalist nutq madaniyatining axloqiy va etik o'lchovini belgilaydi. Bu kompetensiya jurnalistga o'z nutqiy ta'sirining oqibatlarini anglash, auditoriyaga nisbatan mas'uliyatli munosabatda bo'lish va manipulyativ ta'sirni ongli ravishda cheklash imkonini beradi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari jurnalistlarni tayyorlashda nutq madaniyati kompetensiyalarining strukturasi ko'p qatlamli, iyerarxik va dinamik tizim ekanini ko'rsatdi. Bu strukturada lingvistik kompetensiya asos sifatida namoyon bo'lsa, stilistik va ritorik kompetensiyalar nutqning ifodaliligi va ta'sirchanligini ta'minlaydi, kommunikativ-pragmatik kompetensiya esa ularni amaliy muloqotda birlashtiradi. Psixologik madaniyat esa butun tizim

Muhokama. Olingan natijalar jurnalistlarni tayyorlash tizimida nutq madaniyatiga bo'lgan an'anaviy qarashlarni qayta ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi. Amalda nutq madaniyati ko'p hollarda adabiy til me'yorlarini bilish va yozma nutqda xatolarga yo'l qo'ymaslik bilan cheklanib qoladi. Biroq tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, jurnalist nutq madaniyati bundan ancha kengroq mazmunga ega bo'lib, u ijtimoiy ta'sir, kommunikativ strategiya va psixologik mas'uliyat bilan uzviy bog'liq kompleks kompetensiya sifatida shakllanadi.

Jurnalistik nutqning o'ziga xosligi shundaki, u doimo ommaviy auditoriyaga qaratilgan bo'ladi va uning ta'sir doirasi juda keng. Shu sababli nutq madaniyati jurnalist uchun faqat kasbiy mahorat ko'rsatkichi emas, balki jamoatchilik oldidagi axloqiy majburiyat ham hisoblanadi. Vinogradov ta'kidlaganidek, nutq madaniyatining kommunikativ-pragmatik samaradorligi uning ijtimoiy ahamiyati bilan belgilanadi [4]. Jurnalist nutqi esa aynan shu ijtimoiy ahamiyat nuqtai nazaridan eng mas'uliyatli nutq turlaridan biri hisoblanadi.

Muhokama jarayonida aniqlandiki, nutq madaniyati kompetensiyalarining har biri jurnalist faoliyatida alohida funktsiya bajarsa-da, ularni bir-biridan ajratilgan holda shakllantirish samara bermaydi. Lingvistik kompetensiya stilistik va ritorik kompetensiyalar uchun asos bo'lib xizmat qiladi, ammo u o'z-o'zidan ta'sirchan va ishonchli jurnalist nutqini ta'minlay olmaydi. Stilistik va ritorik kompetensiyalar esa kommunikativ-pragmatik ong bilan uyg'unlashgandagina samarali ishlaydi.

Baranov va Parshin tomonidan asoslangan tilning variativ interpretatsiya mexanizmi jurnalist nutq madaniyati muhokamasida alohida ahamiyat kasb etadi [1]. Jurnalist voqelikni tasvirlar ekan, u har doim muayyan nuqtai nazarni tanlaydi, ayrim jihatlarni oldinga suradi, boshqalarini esa ikkinchi darajaga o'tkazadi. Bu jarayon til vositasida amalga oshiriladi va aynan shu yerda nutq madaniyatining ta'sirchanlik va manipulyativ salohiyati namoyon bo'ladi.

Dotsenko ta'kidlaganidek, manipulyatsiya har doim ochiq zo'ravonlik shaklida emas, balki yashirin ta'sir sifatida amalga oshadi [7]. Jurnalist nutqida bunday ta'sir ko'p hollarda uslubiy tanlov, baholovchi leksika, metaforalar va argumentatsiya orqali yuzaga keladi. Muhokama natijalari shuni ko'rsatdiki, nutq madaniyatining yuqori darajasi jurnalistga manipulyativ mexanizmlarni anglash va ulardan ongli ravishda foydalanish yoki ularni cheklash imkonini beradi.

Bu holat jurnalistik ta'limda psixologik madaniyatni nutq madaniyati kompetensiyalarining ajralmas qismi sifatida qarash zarurligini ko'rsatadi. Kuzin ta'kidlaganidek, jurnalistning psixologik madaniyati uning kasbiy barqarorligi, auditoriya bilan munosabati va ijtimoiy mas'uliyatini belgilaydi [9]. Nutq madaniyatining psixologik komponenti jurnalistga o'z ta'sirining oqibatlarini oldindan anglash, auditoriyaning emotsional holatini hisobga olish va ijtimoiy ziddiyatlarni kuchaytirib yubormaslik imkonini beradi.

Muhokama jarayonida o'zbek va rus ilmiy an'alarida nutq madaniyatiga bo'lgan yondashuvlar o'rtasidagi umumiylik va farqli jihatlar ham namoyon bo'ldi. O'rinboev va Soliev hamda Qung'urov, Begmatov va Tojiev asarlarida nutq madaniyati notiqlik mahorati, ma'naviy yetuklik va jamoatchilik oldidagi mas'uliyat bilan bog'lab talqin qilinadi [5], [6]. Bu yondashuv jurnalist nutq madaniyatining axloqiy o'lchovini kuchli ravishda ta'kidlaydi.

O'zbek tilida esa nutq madaniyati ko'proq kommunikativ samaradorlik, stilistik moslik va pragmatik maqsadga yo'naltirilganlik nuqtai nazaridan tahlil qilinadi [3], [4], [8]. Muhokama natijalari shuni ko'rsatdiki, jurnalistlarni tayyorlashda mazkur yondashuvlarni integratsiya qilish eng maqbul variant hisoblanadi. Chunki jurnalist faoliyatida ham axloqiy mas'uliyat, ham kommunikativ samaradorlik birdek muhimdir.

Shuningdek, muhokama jarayonida nutq madaniyati kompetensiyalarini shakllantirishning ta'limiy jihatlar ham tahlil qilindi. Boqieva va Teshaboeva ta'kidlaganidek, jurnalist nutq madaniyatini shakllantirish nazariy bilimlar bilan cheklanmasligi, amaliy mashqlar, nutqiy tahlil va ritorik tayyorgarlik bilan uyg'unlashtirilishi lozim [2]. Tadqiqot natijalari bu fikrni to'liq qo'llab-quvvatlaydi.

Umuman olganda, muhokama shuni ko'rsatdiki, jurnalistlarni tayyorlashda nutq madaniyati kompetensiyalari tizimli, bosqichma-bosqich va integrativ yondashuv asosida shakllantirilishi zarur. Bu yondashuv jurnalist nutqini nafaqat to'g'ri va chiroyli, balki ijtimoiy jihatdan mas'uliyatli va ta'sir oqibatlarini angelaydigan darajaga olib chiqadi.

Xulosa. Olib borilgan ilmiy-tahliliy tadqiqot jurnalistlarni tayyorlash jarayonida nutq madaniyati kompetensiyalarining strukturasi murakkab, ko'p qatlamli va funksional jihatdan o'zaro bog'liq tizim ekanini ko'rsatdi. Nutq madaniyati jurnalist kasbiy faoliyatida yordamchi ko'nikma yoki ikkinchi darajali mahorat emas, balki uning professional identifikatsiyasini belgilaydigan asosiy kompetensiya sifatida namoyon bo'ladi. Jurnalist nutqi orqali axborot nafaqat yetkaziladi, balki ijtimoiy ma'nolar shakllantiriladi, voqelik muayyan nuqtai nazardan talqin qilinadi va auditoriya ongiga ta'sir ko'rsatiladi [1].

Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, jurnalist nutq madaniyatining asosiy poydevorini lingvistik kompetensiya tashkil etadi. Adabiy til me'yorlarini puxta bilish, leksik aniqlik va grammatik to'g'rilik jurnalist nutqining ishonchliligi va jamoatchilik tomonidan qabul qilinishini ta'minlaydi. Belchikov ta'kidlaganidek, nutq madaniyati til tizimini ongli ravishda egallash va uni kommunikativ maqsadlarga muvofiq qo'llay olish qobiliyati bilan belgilanadi [3]. Jurnalist uchun esa bu qobiliyat kasbiy mas'uliyat darajasiga ko'tariladi.

Stilistik kompetensiya jurnalist nutq madaniyati strukturasi muhim funksional bo'g'in sifatida namoyon bo'ladi. U jurnalistning turli janrlarda, turli axborot formatlarida va turli auditoriyalar uchun nutqni moslashtirish qobiliyatini ta'minlaydi. Kolesnikov ta'kidlaganidek, stilistik madaniyat jurnalistik matnning ifodaliligi, janrga mosligi va tahrir sifati bilan uzviy bog'liq [8]. Tadqiqot natijalari stilistik kompetensiyaning yetarli darajada shakllanmagani jurnalistik nutqda noaniqlik va kommunikativ uzilishlarga olib kelishi mumkinligini ko'rsatdi.

Ritorik kompetensiya jurnalist nutq madaniyatining ijtimoiy ta'sirchanlik salohiyatini belgilaydigan asosiy omil sifatida namoyon bo'ladi. Rojdestvenskiy ta'kidlaganidek, ommaviy nutq har doim ishontirishga qaratilgan bo'lib, unda argumentatsiya, obrazlilik va ta'sir ko'rsatish mexanizmlari markaziy o'rin tutadi [10]. O'rinboev va Soliev hamda Qung'urov, Begmatov va Tojiev asarlarida notiqlik mahorati jurnalist nutq madaniyatining amaliy ifodasi sifatida talqin qilinishi mazkur xulosani qo'llab-quvvatlaydi [5], [6].

Kommunikativ-pragmatik kompetensiya nutq madaniyati strukturasi integrativ xarakterga ega bo'lib, u barcha boshqa komponentlarni amaliy muloqot jarayonida birlashtiradi. Vinogradov ta'kidlaganidek, nutq madaniyatining samaradorligi uning kommunikativ maqsadga muvofiqligi bilan belgilanadi [4]. Jurnalist nutqi esa auditoriya xususiyatlari, ijtimoiy kontekst va axborot vaziyatini hisobga olgan holda tashkil etilgandagina yuqori samara beradi.

Psixologik madaniyat jurnalist nutq madaniyati kompetensiyalarining axloqiy va ijtimoiy o'lchovini belgilaydi. Dotsenko ta'kidlaganidek, til orqali amalga oshiriladigan manipulyativ ta'sir ko'p hollarda yashirin xarakterga ega bo'ladi [7]. Kuzin esa jurnalist shaxsining psixologik barqarorligi va auditoriya bilan munosabati kasbiy madaniyatning muhim ko'rsatkichi ekanini ta'kidlaydi [9]. Tadqiqot natijalari psixologik kompetensiya jurnalistga o'z nutqiy ta'sirining oqibatlarini anglash va ijtimoiy mas'uliyatni his etish imkonini berishini ko'rsatdi.

Umumiy xulosa sifatida ta'kidlash joizki, jurnalistlarni tayyorlashda nutq madaniyati kompetensiyalarini alohida-alohida emas, balki yaxlit tizim sifatida shakllantirish zarur. Bunday yondashuv jurnalist nutqini to'g'ri, ifodali va ta'sirchan qilish bilan birga, uni ijtimoiy jihatdan mas'uliyatli va axloqiy barqaror darajaga olib chiqadi. Boqieva va Teshaboeva ta'kidlaganidek, nutq madaniyati va notiqlik san'atini o'qitish jurnalistik ta'limning ajralmas qismi bo'lishi lozim [2].

Shu tariqa, mazkur tadqiqot jurnalistlarni tayyorlash tizimida nutq madaniyati kompetensiyalarining strukturasi ilmiy jihatdan asoslab, ularni shakllantirishning kompleks va integrativ modelini taklif qiladi. Bu model zamonaviy axborot makonida professional, mas'uliyatli va yuqori nutqiy madaniyatga ega jurnalistlarni tayyorlash uchun nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Баранов А.Н. Языковые механизмы вариативной интерпретации действительности как средство воздействия на сознание / А.Н. Баранов, П.Б.Паршин // Роль языка в средствах массовой коммуникации. М.: ИНИОН, 1986.- С. 100-143.
2. Боқиева Г.Х., Тешабоева Д. М. Журналистнинг нутқ маданияти ва нотиклик санъати (ўқув-методик ишланма)
3. Бельчиков Ю.А. Стилистика и культура речи / Ю.А. Бельчиков. -М.: УРАО, 2000. 160 с.
4. Виноградов С.И. Нормативный и коммуникативно-прагматический аспекты культуры речи / Отв. ред. Л.К. Граудина, Е.Н. Ширяев. // Культура русской речи и эффективность общения. М.: Наука, 1996. - 440 с.
5. Б.Ўринбоев, А С олиев. Нотиклик маҳорати Т. 1984
6. И . Р.Қунгуров, Э.Бегматов, Ё.Тожиев. Нутқ маданияти ва услубияти асослари Т. 1992

7. Доценко Е. Л. Психология манипуляции: феномены, механизмы и защита/ Е.Л. Доценко. СПб.: Речь, 2003. - 304 с.
8. Колесников Н.П. Стилистика и литературное редактирование/ Н.П. Колесников. Ростов н/Д: МарТ, 2003. - 192с.
9. Кузин В.И. Психологическая культура журналиста/ В.И. Кузин. -СПб.: СПбГУ, 2004. 200 с.
10. Рождественский Ю.В. Теория риторики/ Ю.В. Рождественский. -М.: Добросвет, 1999. 482 с.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/1 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).